



NAVOIY VILOYATI TOMDI TUMANI HOKIMINING QARORI

210800, Tomdi tuman, Yangi Tomdi qo'rg'oni, tel: (79) 582-13-13, fax: 582-13-22, e-mail: tomdi@nv.uz

2024 - yil 11 - iyun

64-5-75-Q/24

Tomdi tumani hokimligi

Tomdi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiyl o'rta ta'limga to'liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta'lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to'g'risida

"Ta'limg to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmonihamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumiyl o'rta ta'limg to'g'risida"gi Nizomning 5-bob, 39-bandiga asosan tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining 2024 yil 15 maydagi 15-sonli murojaat xatini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq

QAROR QILAMAN:

1. Tomdi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiyl o'rta ta'limga to'liq qamrab olish bo'yicha umumta'lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro'yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.
2. Maktab yoshidagi bolalarni umumiyl o'rta ta'limga qamrab olish umumta'lim muassasalari pedagog xodimlari tomonidan bolalarni birma-bir (uyma-uy) ro'yxatga olish orqali amalga oshirilsin.
3. Tuman hokimi o'rribbosari (N.Beknazarov), tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (M.Bazarbayev) umumta'lim maktab rahbarlari bilan birgalikda maktab yoshidagi bolalarni umumiyl o'rta ta'limga, umumta'lim muassasasi bitiruvchilarini ta'limging keyingi bosqichiga to'liq qamrab olish, o'quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rish vazifasi topshirilsin.

4. Belgilansinki, tumandagi umumta'lim muassasalar rahbarlari o'zlarini rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o'z vaqtida umumta'lim muassasasiga o'qishga jalb qilish uchun mas'ul hisoblanadi.

5. O'zbekiston mahallalari uyushmasi Tomdi tumani bo'limi (Ye.Mirzayev) mahalla fuqarolari yig'inini maktab yoshidagi bolalarni qamrab olishda umumta'lim muassasalariga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Ametov) mazkur qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya qilinsin.

7. Mazkur qaror kuchga kirishi bilan Tomdi tumani hokimining 2020-yil 26-oktyabrdagi K-283-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinosi N.Beknazarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.b



O.Umarov

Tomdi tuman hokimining
2024-yil 11-iyundagi
64-5-75-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Tomdi tumanida məktəb yoshidagi bolalarnı umumiy o'rta ta'limga to'liq qamrab
olish bo'yicha umumta'lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)**

RO'YXATI

T/r	Məktəb raqamı	Belgilangan mikrouchastkadagi mahalla va ko'cha nomlari	Izoh
1	1-məktəb	"Tomdibuloq" OFY: Tolebi ko'chasi, A.Navoiy ko'chasi, Ayteke bi ko'chasi, Bazar Jusip ko'chasi, Sh.Sarsebauev ko'chasi, O'rtaquduq ko'chasi, Qizilquduq aholi punkti	
2	2-məktəb	Boshlang'ich sinf mavjud emas	
3	3-məktəb	"Ayakkuduk" OFY:	
4	4-məktəb	"Tomdibuloq" OFY: Sarsenbauev ko'chasi, Qazbek bi ko'chasi, Aqtaqir ovuli	
5	5-məktəb	"Keriz" OFY:	
6	6-məktəb	"Aqtov" OFY:	
7	7-məktəb	"Suketti" OFY:	
8	8-məktəb	"Shieli" OFY:	
9	9-məktəb	"Keregetov" OFY:	
10	10-məktəb	"Ayaqquduq" OFY: Qulimbet ovuli	
11	11-məktəb	"Shieli" OFY: Aqqabaq ovuli	
12	12-məktəb	"Tomdibuloq" OFY: Navro'z, Abay, Oltin tog', Bazar jirau, Ayteke bi, ko'chalari	
13	13-məktəb	"Keregetov" OFY: Jiriq ovuli	
14	14-məktəb	"Keregetov" OFY: O'rta quduq ovuli	
15	15-məktəb	"Tomdibuloq" OFY: Yangi Tomdi qo'rg'oni	
16	16-məktəb	"Sharq" OFY: Roxat aholi punkti	
17	17-məktəb	"Ayaqquduq" OFY: Aldabergen ovuli	
18	Ixtisoslashtirgan məktəb-internati	"Tomdibuloq" OFY Sharq massivi 1-uy	